


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60721700-Kadastr bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy
tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil «25»
06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	4
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	7
5.	Dual talim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar	8
	Bibliografik ma'lumotlar	9
	Kelishuv varag'i	10

1. Umumiy tavsifi

60721700 – *Kadastr* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 60721700 – *Kadastr* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida respublikada yuritilayotgan davlat kadastrlari turlari bo'yicha foydalaniladigan ob'yektlari, kadastr korxonalari, kadastr turlariga oid yer uchastkalari va ular hududidagi ob'yektlar, yerdan foydalanish, yer egaliklari, ob'yektlardan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida kadastr muhandisi.

60721700 – *Kadastr* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60721700 – *Kadastr ta'lim yo'nalishi* bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida;

respublika va xorijda chop etilgan kadastrga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

ko'p tuzilmali yerdan foydalanishga o'tish sharoitida yerlarning holati kadastr tizimini ishlab chiqish, yerlarni baholash ishlarini ilmiy va uslubiy ta'minoti (barcha toifadagi yerlar uchun), yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash, yer kadastrini joriy etishning yagona metodologiyasini ishlab chiqish, tuproqning qiyosiy sifat ko'rsatkichlarining ilmiy asoslari (tuproq bonitirovkasi), davlat kadastrlarini axborot bilan ta'minoti, zamonaviy axborot va geoaxborot texnologiyalari asosida geografik axborot tizimining (GAT) asosiy qismi sifatida yer axborot tizimini (YAT) ishlab chiqishda mavjud texnologik muammolarni tahlil qila olish;

kadastr obyektlarini davlat ro'yxatiga olish, yer hisobini yuritish, yerlardi sifat va iqtisodiy baholashda zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

kadastr obyektlarini davlat ro'yxatiga olish, yer hisobini yuritish, yerlardi sifat va iqtisodiy baholashda va yer monitoringini yuritishda samarali faoliyatni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kadastr obyektlarini davlat ro'yxatiga olish, yer hisobini yuritish, yerlardi sifat va iqtisodiy baholash, kadastr ishlarini huquqiy ta'minoti, kadastr ishlarini tashkil etish va yer monitoringini yuritishda mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

kadastr obyektlarini davlat ro'yxatiga olish, yer hisobini yuritish, yerlardi sifat va iqtisodiy baholash, topogeodezik ishlarda zamonaviy asboblardan foydalanishda texnika xavfsizligi me'yorlarini bilish va ishda qo'llash

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

davlat kadastrlarini yuritishda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer hisobini yuritish, kadastr ishlarini kartografik ta'minoti va kadastr syomkalari jarayonida loyihalash, texnik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

davlat kadastrlarini yuritishda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer hisobini yuritish, kadastr ishlarini kartografik ta'minoti va kadastr syomkalari ishlarni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlashni inobatga olgan holda loyihalash ishlarida ishtirok etish;

davlat kadastrlarini yuritishda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer hisobini yuritish, kadastr ishlarini kartografik ta'minoti va kadastr syomkalari ishlarini

tashkil etish va boshqarish, bajarilayotgan tajriba-loyiha va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va fazoviy ma'lumotlar modellarini ishlab chiqish va tadqiqot qilish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatda:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

davlat kadastrlarini yuritish, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish, yer hisobini yuritish, yerlarni iqtisodiy baholash va tuproq bonitirovkasi, kadastr ishlarini kartografik ta'minoti hamda kadastr syomkalari o'tkazish bo'yicha ko'nikmasiga ega bo'lishi;

faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini yuritishda iqtisodiyot tarmoqlari talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

texnologik jarayonlar bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

texnik jarayonlar bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini yuritish nazariyasi va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;

davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishda boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va axborotlar bilan ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlariga oid axborotlarni samarali shakllantirish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashda mavjud muammolar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;

2. Ishlab chiqarish amaliyoti;

3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4830	161	
1.01	OEYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	XT1110	Xorijiy til	300	10	1,2
1.03	MAT1112	Oliy matematika	360	12	1,2
1.04	FIZ1106	Fizika	180	6	1
1.05	TIL1105	O'zbek (rus) tili	150	5	1
1.06	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.07	FAL1104	Falsafa	120	4	2
1.08	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	KIKG1105	Kadastr ishlarida kompyuter grafikasi	150	5	2
1.10	GEO1111	Geodeziya	330	11	2,3
1.11	TUP2105	Tuproqshunoslik	150	5	3
1.12	DKA2105	Davlat kadastrlari asoslari	150	5	3
1.13	YRB2105	Yer resurslarini boshqarish	150	5	3
1.14	KAR2105	Kartashunoslik	150	5	3
1.15	TRK2105	Tabiiy resurslar kadastr	150	5	4
1.16	YK2111	Yer kadastr	330	11	4,5
1.17	GTT2110	Geoaxborot tizimi va texnologiyalari	300	10	4,5
1.18	YT2105	Yer tuzish	150	5	4
1.19	BIDK3110	Bino va inshootlar davlat kadastr	300	10	5,6
1.20	DKHT3105	Davlat kadastrlarini huquqiy ta'minoti	150	5	5
1.21	YH3105	Yer huquqi	150	5	5
1.22	YM4105	Yer monitoringi	150	5	6
1.23	FMMI4110	Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi	300	10	6,7
1.24	KITE4105	Kadastr ishlarini tashkil etish	150	5	6
1.25	YKMB4105	Yer va ko'chmas mulkni baholash	150	5	7
2.00		Tanlov fanlar	1350	45	
2.00		Tanlov fanlar	1350	45	3,4,5,6,7
Kvalifikatsiya		Kadastr muhandisi			
		Jami	6180	206	
		Malakaviy amaliyot	1020	34	4,8
		Jami	1020	34	
		HAMMASI	7200	240	

5. Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.

Dual ta'lim kadrlar iste'molchilarning talablaridan kelib chiqqan holda kerakli amaliy bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim jarayoni tashkil etiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, davlat kadastrlari yagona tizimi, tabiiy resurslar kadastrlari, chiziqli turdagi kadastr obyektlarini yuritish xususiyatlari, yer tuzish, yer kadastrlari, obyektlar monitoringi, yer huquqi, geodeziya, kompyuter grafikasi, kartografiya, fotogrammetriya va masofadan zondlash, yer konturi, yer uchastkasi, yer resurslari, kadastr obyektlari, hududlar davlat kadastrlari obyektlari bo'yicha axborotlarni avtomatlashgan tizimlari, axborotlar tahlili, avtomatlashtirilgan tizimlar, kreativ yechimlar, kadastr ishlarini tashkil etish va boshqarish.

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti
60721700 – Kadastr (ta'lim yo'nalishi bo'yicha
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.







“ ___ ” _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradasiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'I O.Soatov, “O'zdavyerloyiha” DILI bosh direktori o'rinbosari B.Inamov, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori prof. B.Mirzayev birgalikda “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60721700 – Kadastr

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 193-sonli “Oliy ta'lim yo'nalishlarini optimallashtirish jarayonida me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish to'g'risida”gi buyrug'I hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradasiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i	  O. Soatov
O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi “O'ZDAVYERLOYIHA” DILI Bosh direktor o'rinbosari	  B. Inamov
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektor	  B. Mirzayev